

O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMKORLIK ORQALI SDG 6 (TOZA SUV) MUAMMOSINI HAL ETISH: OROL DENGIZI MISOLIDA AMALIY TAHLILIY VA STRATEGIK TAKLIFLAR

Abduraxmonova Shaxinabonu Bayozboyevna

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti "Xalqaro munosabatlar fakulteti
siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi. abduraxmonova1405@gmail.com*

Kushayeva Nigina Baxromjonovna

*Ilmiy rahbar JIDU «Siyosatshunoslik» kafedrasi o'qituvchisi E-mail:
niginakushaeva@gmail.com*

Tobora globallashib borayotgan XXI asrda toza suv insoniyat uchun eng katta muammolardan biriga aylandi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda Orol dengizining qurishi toza suv muammosi bilan birga iqlim muammolarini ham keltirib chiqardi.

Bu masalani hal qilishda O'zbekiston nafaqat yakka holda, balki Birlashgan Millatlar Tashkilotining ham chora-tadbirlari bilan faol tarzda harakat qilmoqda. Ushbu tezisda O'zbekistonda BMT ning Barqaror Rivojlanish Bo'yicha 6-maqsadi – toza suv va sanitariyaga oid munosabatni ta'minlash sohasidagi holat, mintaqada mavjud muammolar va Orol dengizi masalasi tahlil qilinadi hamda mavjud muammolarga bir necha istiqbolli yechimlar beriladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan, dengizga chiqish imkoniyati mavjud bo'lmagan davlatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakat ikki dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar – Qozog'iston va Tojikiston orasida joylashgan davlat sanaladi.

Bu esa O'zbekistonning ikki qo'shni davlat bilan suv taqsimotida diplomatik aloqalarni yaxshilashi va kengaytirishi kerakligini bildiradi. Milliy statistika agentligining so'ggi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil aprel holatiga O'zbekiston aholisi 38,4 million kishini tashkil etmoqda.⁴⁵

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror Rivojlanish Maqsadlari" bo'yicha 6-maqsadi aholi uchun toza ichimlik suvi va sifatli sanitariya xizmatlarini ta'minlash hisoblanadi. BMT va boshqa sherik tashkilotlar bu borada O'zbekistonda bir necha islohotlar olib bordi, jumladan, UNDP, Jahon Banki va Osiyo Taraqqiyot Banki birgalikda mamlakat hududida suv infratuzilmasini kengaytirishga harakat qilmoqda.⁴⁶ Bugungi kunda deyarli 40 million aholiga ega mamlakatda 7 million aholi toza ichimlik suviga ega emas.⁴⁷

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston aholisi soni (Statistik ma'lumotlar). Stat.uz rasmiy sayti, 2024. URL: <https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>. (Murojaat sanasi: 09.05.2024).

⁴⁶ BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. Barqaror rivojlanish maqsadlari: Toza ichimlik suvi va sanitariya. Uzbekistan.un.org, 2024. URL: <https://uzbekistan.un.org/uz/sdg/6>. (Murojaat sanasi: 09.05.2024).

⁴⁷ O'zbekistonda 7 million odam toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan – Jahon banki vakili. Daryo.uz internet-nashri, 2025. URL: <https://daryo.uz/2025/06/20/tegmang-ozbekistonda-7-million-odam-toza-ichimlik-suvi-bilan-taminlanmaganjahon-banki-vakili>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

Bu haqida Jahon bankining suv ta'minoti va oqova tizimi bo'yicha katta mutaxassisi Odete Muhimpua aytib o'tdi. Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda O'zbekistonda aholining 80 % dan ortig'i toza suv bilan ta'minlangan bo'lsa, qolgan salkam 20 % aholida toza suv bilan bog'liq muammolar mavjud. BMT o'z oldiga BRM ning 6-maqsadi bo'yicha quyidagi maqsadlarni qo'ygan:⁴⁸

— 2030 yilga qadar barcha uchun xavfsiz va arzon ichimlik suviga universal erishishni ta'minlash (6.1-vazifa);

— 2030 yilga qadar suv samaradorligini barcha sohalarda sezilarli darajada oshirish va suv taqchilligini bartaraf etish (6.4-vazifa);

— 2030 yilga qadar suv bilan bog'liq ekotizimlarni himoya qilish va tiklash (6.6-vazifa).

O'zbekistonda toza ichimlik suvi yetishmasligi muammosi bilan birga Orol dengizi muammosi ham mavjud. Orol dengizining qurishi bu faqatgina O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavf keltirib chiqaruvchi omil emas, balki butun dunyo ekotizimiga zarar yetkazuvchi ommaviy xavfdir. Muammoning kelib chiqishiga asosiy sababchi bu – Sobiq SSSR davrida suvning qo'llanilishi bo'yicha noto'g'ri olib borilgan siyosat natijasi. Ya'ni 1960-yillarda Sovet Ittifoqi Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonning quruq tekisliklarida yirik suv yo'naltirish loyihasini amalga oshirgan edi. Mintaqaning ikki asosiy daryosi — Sirdaryo va Amudaryo — cho'lni paxta va boshqa ekinlar uchun dalalarga aylantirish maqsadida yo'naltirildi va natijada Orolga suv yetib bormadi. Sug'orish cho'lni gullab-yashnashga majbur qildi, ammo Orol dengizini vayron qildi. Orol dengizining qurishi va buning oqibatida kelib chiqadigan kata miqdordagi tuz dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda Qoraqalpog'iston mustaqil avtonom respublikasining Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, Bo'zatov va Taxtakopir tumanlari eng ko'p miqyosda aziyat chekadi. Shuning uchun bir necha tashkilotlar, jumladan, UNICEF bu hududlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirdi. Tashkilot amalga oshirgan loyihalardan biri bu Qoraqalpog'istondagi WASH loyihasi. Unga ko'ra UNICEF milliy hamkorlar bilan birga Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq, Qo'ng'iro't va Bo'zatov tumanlarida 15 ta maktab va 20 ta tibbiyot muassasasida suv va sanitariya infratuzilmasini yaxshiladi. Dastur 700 dan ortiq o'qituvchi va 27 000 o'quvchiga iqlimga chidamli suv va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkonini bermoqda.⁴⁹

AMALIY YECHIM VA TAKLIFLAR

Orol va O'zbekistondagi toza suv muammolarini hal etish bir necha amaliy sa'y-harakatlarni talab etadi. Xususan, Orol dengizini oldingi holatga qaytarish deyarli imkonsiz, lekin qolgan qismini saqlab qolish hamda vaziyatni biroz barqarorlashtirish mumkin.

1. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng targ'ib etish

⁴⁸ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 6-maqsad: Barcha uchun suv va sanitariya vositalarining mavjudligi hamda ulardan barqaror foydalanishni ta'minlash. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, SDG portali. URL: <https://sdgs.un.org/goals/goal6>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

⁴⁹ YUNISEF O'zbekiston. Suv, sanitariya va gigiyena (WASH). Unicef.org rasmiy sayti, 2024. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/water-sanitation-and-hygiene>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

Xalqaro Qishloq Xo'jaligi Tadqiqotlari Bo'yicha Maslahat Guruhi ma'lumotlariga ko'ra tomchilab sug'orish texnologiyasi an'anaviy sug'orishga nisbatan 30 foizga tejaydi, energiya iste'molini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi. Hozirga qadar O'zbekistonda bu usuldan foydalanish ommalashmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilangan maqsadga ko'ra, 2023-yilda 7 milliard, 2024-yilda 8 milliard kub metr suv tejalgan. 2030-yilga qadar yiliga 15 milliard kub metr tejash rejalashtirilgan.⁵⁰

2. Mintaqaviy hamkorlik

O'zbekiston va unga qo'shni davlatlar – Qozog'iston hamda Tojikiston ham dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlatlar hisoblanadi. Shuning uchun bu mamlakatlar orasida strategik sheriklik va suv taqsimoti bo'yicha aniq kelishuvlar zarur. Ushbu hamkorlikka misol qilib, 2024-yildagi O'zbekiston va Qozog'iston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hukumatlararo hamkorlik to'g'risida bitim imzolaganlarini keltirish mumkin. Bitim Orol dengizi havzasi uchun qo'shma chora-tadbirlar, Sirdaryo suv sifatini monitoring qilish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan.⁵¹

3. Ko'k-Oral to'g'oni — Shimoliy Orolni tiklash

2001-yil iyunda Jahon banki va Qozog'iston hukumati tomonidan "Sirdaryo nazorati va Shimoliy Orol dengizini saqlash" loyihasini rasmiylashtirdi. Umumiy qiymati 86 million dollar bo'lgan loyihaning 64,5 million dollari Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan edi. Bu loyiha natijasida 12 kilometrlik Ko'k-Oral to'g'oni 2005-yilda qurilgan bo'lib, Sirdaryoning suvini Shimoliy Orol dengiziga yo'naltirib, suv sathini 42,5 metrgacha ko'tardi va hajmini 27,5 kub kilometrda barqarorlashtirdi. Ko'l maydoni 2006-yildagi 2800 kv km dan 2020-yilda 3400 kv km gacha kengaydi. Bu loyihaning davom etishi Orolning ma'lum qismini qaytarish uchun muhim rol o'ynaydi.⁵²

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda O'zbekiston BRM ning 6-maqsadiga erishish bo'yicha jiddiy qadam qo'ymoqda. Hududda Orol dengizi muammosi va dengizning qurishi natijasida ekotizimning buzilishi, aholining ayrim qismlariga toza suv yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Bu masalalarni hal qilish murakkab diplomatik va texnologik yechimlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston aholisi soni (Statistik ma'lumotlar). Stat.uz rasmiy sayti, 2024. URL:

⁵⁰ Pakistan Today. O'zbekiston 2030-yilga kelib barcha sug'oriladigan yerlarni suv tejovchi texnologiyalar bilan jihozlaydi. Pakistantoday.com.pk xalqaro nashri, 2025. URL: <https://www.pakistantoday.com.pk/2025/08/13/uzbekistan-to-equip-all-irrigated-lands-with-water-saving-technologies-by-2030>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

⁵¹ Geopolitical Monitor. Orol dengizini saqlab qolish Markaziy Osiyodan hamjihatlikda ishlashni talab etadi. Geopoliticalmonitor.com tahliliy portali, 2024. URL: <https://www.geopoliticalmonitor.com/saving-the-aral-sea-demands-central-asia-work-together>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

⁵² The Astana Times. Qozog'iston va Jahon banki Shimoliy Orol dengizini qayta tiklash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirmoqda. Astanatimes.com xalqaro nashri, 2024. URL: <https://astanatimes.com/2024/08/kazakhstan-world-bank-advance-northern-aral-sea-restoration-efforts>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

<https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3>. (Murojaat sanasi: 09.05.2024).

2. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi. Barqaror rivojlanish maqsadlari: Toza ichimlik suvi va sanitariya. Uzbekistan.un.org, 2024. URL: <https://uzbekistan.un.org/uz/sdg/6>. (Murojaat sanasi: 09.05.2024).

3. O'zbekistonda 7 million odam toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan – Jahon banki vakili. Daryo.uz internet-nashri, 2025. URL: <https://daryo.uz/2025/06/20/tegmang-ozbekistonda-7-million-odam-toza-ichimlik-suvi-bilan-taminlanmaganjahon-banki-vakili>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 6-maqсад: Barcha uchun suv va sanitariya vositalarining mavjudligi hamda ulardan barqaror foydalanishni ta'minlash. BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, SDG portali. URL: <https://sdgs.un.org/goals/goal6>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

5. YUNISEF O'zbekiston. Suv, sanitariya va gigiyena (WASH). Unicef.org rasmiy sayti, 2024. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/water-sanitation-and-hygiene>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

6. Pakistan Today. O'zbekiston 2030-yilga kelib barcha sug'oriladigan yerlarni suv tejovchi texnologiyalar bilan jihozlaydi. Pakistantoday.com.pk xalqaro nashri, 2025. URL: <https://www.pakistantoday.com.pk/2025/08/13/uzbekistan-to-equip-all-irrigated-lands-with-water-saving-technologies-by-2030>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

7. Geopolitical Monitor. Orol dengizini saqlab qolish Markaziy Osiyodan hamjihatlikda ishlashni talab etadi. Geopoliticalmonitor.com tahliliy portali, 2024. URL: <https://www.geopoliticalmonitor.com/saving-the-aral-sea-demands-central-asia-work-together>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).

8. The Astana Times. Qozog'iston va Jahon banki Shimoliy Orol dengizini qayta tiklash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirmoqda. Astanatimes.com xalqaro nashri, 2024. URL: <https://astanatimes.com/2024/08/kazakhstan-world-bank-advance-northern-aral-sea-restoration-efforts>. (Murojaat sanasi: 09.05.2026).